

O'QISH DARSLARIDA HIKMATLARDAN FOYDALANISH ORQALI KOMPETENSIYALARНИ SHAKLLANTIRISH

Axmedov Ulug'bek Normamatovich

Jumaniyazova Dilfuza Sagatbaevna

Jizzax viloyat Baxmal tumani 86- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'qish darslarida hikmatlardan foydalanish orqali kompetensiyalarни shakllantirish haqida fikr-mulohazalar bildirildi.*

Kalit so'zlar: *ta'llim, kompetensiya, fikr, shaxs, mazmun izchillik, Alisher Navoiy Ibn Sino.*

Mamlakatimizda ta'llimning uzluksizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiyo'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'llimida o'qitiladigan umuta'lim fanlari mazmunining izchilligini ta'minlash maqsadida 6 ta tayanch kompetensiyalar hamda har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda xususiy kompetensiyalar belgilandi. Mazkur kompetensiyalarни boshlang'ich sinflardan boshlab shakllantirish bugungi kunning asosiy talabi hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib oddiy savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish, orasta kiyimish, o'quvchilarning olgan bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olish, o'z-o'zini boshqarish, jamoada o'zini tutish, so'z boyligini shakllantirish, yurish-turishda madaniy me'yordarga va sog'lom turmush tarziga amal qilishning dastlabki ko'nikmalari shakllantiriladi.

Kommunikativ kompetensiya - muloqotda muomala odobiga riosa qilish; suhbatdoshining fikrini tinglay olish, o'z fikrini tushuntira bilish; o'zini tuta olish; muloqotga kirishishda muomala madaniyatiga riosa qilish; muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilish kabi elementlarni o'z ichiga olib, bu suhbatlashish, til bilan bog'liq bo'lgan hikmatlarni o'rganish orqali namoyon bo'ladi.

Masalan:

Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib.

Tilingni avayla omondir boshing,

So'zingni avayla uzayar yoshing.

Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi - kun tartibini to'g'ri tashkil qilish; o'zini xato va kamchilagini to'g'ri tushunish, o'zini nazorat qilish, xatolarini tuzatishga harakat qilish; halollik, to'g'rilik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik kabi sifatlarga ega bo'lish; yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlash, yaxshi fazilatlarga riosa qilish kabi elementlardan iborat. Ushbu sifatlarni o'quvchilarda shakllantirish jarayoni bevosita Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino,

Abdulla Avloniy kabi buyuk mutafakkirlarning ijod namunalari bo'lgan hikmatlaridan foydalanish yaxshi samara berishi isbotlangan.

Yaxshining yaxshiligi tegar tor yerda

Yomonning yomonligi tegar har yerda.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi - o'quvchilik burch va huquqlarini, vazifalarini bilish va ularga rioxaliga qilish; muomala madaniyatiga amal qilish (kattaga hurmat, kichikka izzatda bo'lish kabi sifatlarga ega bo'lish); oiladagi o'z o'rnnini hamda vazifalarini anglay olish; məktəb binosi, sinfdagi jihozlar, mebellarni asrab-avaylash. *Yurt qo'risang o'zarsan, qo'rimasang to'zarsan.*

Umummadaniy kompetensiyalar - san'at asarlarini tahlil qilish; maktabning ichki tartibqoidalariga rioxaliga qilish; yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish; milliy qadriyatlar (milliy-madaniy an'analar, bayramlar, sayillar)ni bilish.

Har bir kishining qadr-qimmati o'z ishini qoyil qilib bajarishidadir. (Abu Rayhon Beruniy)

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi - bir kunlik harajatlarini hisoblashni bilish; milliy o'yinlarimizning qanday paydo bo'lganligini bilish; o'quv qurollarini saranjom saqlash; oilasida nechta odam borligi, kim katta-yu, kim kichikligini bilish.

Kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'l. Iqtisod qilgan kishi faqir bo'lmas.

O'zbek xalqining avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadryati hamda o'ziga xos an'analar mustaqillik sharofati bilan saqlab qolishga erishildi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, beba ho ma'navaiy va madaniy merosini tiklash, milliy o'zlikni anglashni o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalaridan, uning ildizlariga qaytarishdan iborat uzyiy tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Asosiysi, milliy odob-axloq, hikmatlar farzandlarimizni halol, pok, mehnatkash, ilmga intiluvchi, kattalarni, ayniqsa ota-onalarni hurmat qiladigan ma'naviy yetuk qilib tarbiyalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Abdurahmonova N., O'rinboyeva L. Ona tili / O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma / 2-sinflar uchun. - Toshkent: "Ehtremum-press", 2014. - 80 b.

2. Masharipova U., Umarova M., Boynazarova D., Nabiyeva M. Ona tili / O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma / 4-sinflar uchun - Toshkent: "Ehtremum-press", 2017 - 88 b.

3. Tal'at G'afforova. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik tehnologiyalar. - Toshkent: Tafakkur, 2011. - 160 b.